

**MUSIQA TA'LIMIDA MAQOM ASARLARINI O'ZLASHTIRISHGA  
ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ QILISH  
USULLARI.**

**МЕТОДЫ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ И  
ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОСВОЕНИИ МАКОМ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В  
МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.**

**METHODS OF APPLYING MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES  
IN MASTERING WORKS IN MUSIC EDUCATION.**

*Yuldoshev Umidjon Yuldoshevich*

*Nizomiy nomidagi TDPU "Musiqqa madaniyati"*

*fakul'teti dotsenti, PhD.*

*Юлдошев Умиджон Юлдошевич*

*Доцент факультета «Музыкальная  
культура» ТГПУ им. Низами, PhD.*

*Yuldoshev Umidjon Yuldoshevich*

*Dotsent of the Faculty of "Music Culture" of*

*Nizomi TDPU, PhD.*

[u.yuldoshev@internet.ru](mailto:u.yuldoshev@internet.ru)

88-186-05-12

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maqom ijrochiligida zamonaviy metod va texnologiyalarning o'рни, maqom asarlarini o'rganish jarayonida an'anaviy hamda zamonaviy metodlar ahamiyati, shuningdek maqom ta'limida "Melodyn" musiqiy-kompyuter dasturdan foydalanish va musiqa medagogikasi ta'limi jarayoniga tatbiq etish usullari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Milliy maqom, metod, nota, texnologiya, ustoz–shogird, uy fonotekasi, tanbur chizig'i, melodyn, adaptatsiya.

Hozirgi jadal integratsiyalashuv sharoitida mamlakatimizda milliy madaniyatimizni yanada mustahkamlash, rivojlantirish, milliy maqom musiqasi ijrochiligi sifatini oshirish, uning nazariy tadqiqotlarini amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar boshlab yuborildi. Bu masalada respublikamizda Buxoro shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari ijrochiligini takomillashtirish maqsadida hududlarda maqom ansambllari tashkil etildi va ularning faoliyati respublika darajasida monitoring qilinishi yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda bo'lajak musiqa o'qituvchilariga maqom san'ati asoslarini o'rgatish uchun sharoitlar yaratish, ijro mahorati orqali pedagogik natijalarga erishishni ta'minlash borasida 14 ta maqom markazi va 4 hududda maqom maktablari

tashkil etildi, muntazam ravishda ko'rik-tanlov va festivallar hamda maqomlarni yozib olishga doir ishlar amalga oshirilmoqda va moddiy texnik bazasi yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 avgust 2023 yildagi 289-sonli "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida milliy musiqani o'rganishni yangi talablar nuqtai nazaridan tahlil qilib, qayta ko'rib chiqish belgilangan. [1.]. Natijada, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, intellektual salohiyatli, mustaqil fikrlay oladigan va yuksak ma'naviyatli shaxslar sifatida tarbiyalashda keng imkoniyatlar yaratiladi.

Ushbu sharoitda musiqa ta'limida milliy maqom asarlarini o'rganishni tashkil etish muhim bo'lib, bu yo'nalishda zamonaviy o'qitish metodlari va texnologiyalaridan izchil foydalanish taqozo etilmoqda. Bu holat musiqa amaliyotida turli texnik vositalar, kompyuter texnikasi, multimedia vositalaridan keng foydalanish mumkinligidir.

Musiqa ta'limi metodlarini tarixiylik prinsipiga ko'ra 2 guruhga ajratish mumkin:

1. An'anaviy (tarixiy) metodlar; tushuntirish, suhbat, taqqoslash, taqqoslash, ko'rgazmalilik, sistemalilik, izchillik, akapella hamda tinglash kabi metodlar.

2. Zamonaviy metodlar; "men musiqa tanlayman" metodi, "musiqa bilan uchrashuv" metodi, davomiylik metodi, eslash metodi, ustoz–shogirdlik metodi.

Musiqiy pedagogik metod va texnologiyalar. Pedagogikada juda ko'p pedagogik texnologiyalar mavjud bo'lib, ularning ayrimlarini musiqa pedagogikasiga adaptatsiyalash mumkin yoki yangi metod va texnologiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Quyidagilarni musiqa pedagogikasiga moslashtirish mumkin: [6.]

Suhbat metodi. Bu metod musiqiy cholg'uda asar ijro etishni o'rganish jarayonining istalgan vaziyatida, masalan, nota o'qish vaqtida, yangi asarni tushuntirish vaqtida, musiqani eshitish vaqtida va boshqa hollarda qo'llanilishi mumkin. Bu metodning maqsadi yangi zamonaviy musiqani turli davr va madaniyatlar bilan bog'lashdir. Talaba bilan rasmiy ravishda emas, balki samimiylik bilan suxbatlashish unga bilim berish, musiqaga, san'atga, madaniyatga, musiqachining faoliyatiga munosabatini shakllantirishning ajoyib imkonini yaratadi.

Ustoz–shogirdlik metodi. Ustoz talabasiga o'z bilim va tajribalarini o'tkazuvchi insondir. Musiqiy pedagogikada ustoz–shogirdlik juda samaralidir. Bu an'ana yoshlarga ta'lim berishda, ularning ruhiy ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, ijodiylikni uyg'otishda va, bir so'z bilan aytganda, komil insonni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Ustoz o'z shogirdini nazorat qilib boradi va unda o'ziga bo'lgan ishonch, vaziyatni to'g'ri baholay olish va eng kerakli ijobiy jihatlarni o'zida shakllantirishda yordam beradi. Xusayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniy" asarida ustoz va shogird qanday bo'lishi kerakligi va ularga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumotlar

keltirilgan: “Yaxshi ustoz mehribon, dono va ishonsa bo‘ladigan odamdir. Unda g‘azab va jaholatdan asar ham yo‘qdir.... Shogird esa ustozini nimaiki aytmasin, uni jon qulog‘i bilan eshitishi, yuragi bilan qabul qilishi va vijdonan bajarishi kerak” [7.].

Talabalarning musiqiy tajribasini, ulardagi ma‘naviy jihatlarni yangi musiqiy-pedagogik texnologiyalarni aks ettiruvchi quyidagi metodikalar orqali o‘rganish mumkin.

- uy fonotekasi uchun musiqa;
- do‘stlar uchun musiqa dasturi.

Sharq xalqlari kabi o‘zbeklar o‘tmish avlodining muzika san‘atida professionalizm eramizning birinchi asrlaridayoq vujudga keldi va asrlar davomida takomillasha borib, ijrochilik madaniyatida ham, vokal va cholg‘u muzika janrlarida ham yuksak badiiy natijalarga erishdi. Ammo professional muzikachilar bizning asrimizgacha amalda nota yozuvini qo‘llashmadi [2; 35-6.].

Maqomlarning o‘ziga xos qonun-qoidalari va ijro etish uslublarini tushunib olish, umuman olganda, ushbu san‘atni egallash o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, o‘tmishda maqom ustozlari mana shu monumental turkum asarlarni o‘zlarining shogirdlariga o‘rgatish va xotirasida saqlab qolishni osonlashtirish uchun kuy-ashulalarning yozuv vositalarini ixtiro qilganlar.


O‘n ikki maqomning tarixiy taraqqiyot yo‘li, uning shakllanish jarayoni masalasi yuzasidan biror aniq fikr aytish qiyin. Chunki u davrlarda hozirgi ma‘nodagi nota yozuvi bo‘lmaganligi bizni o‘tmish musiqamizning jonli namunalarini tasavvur etishga imkon bermaydi [2; 91-6.].

Shuni ham alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, Komiil Xorazmiy nota tizimi Safiuddin Al-Urmaviy tabulaturasiga o‘xshab ketadi. Urmaviyning tabulaturasi ud soziga moslangan bo‘lib, u gorizontol holatda harflar va sonlardan foydalanib tuzilgan edi.

Urmaviyning XIII asrdayoq bunday notatsiya tizimini yaratganligi butun dunyoda tabulaturani birinchi bo‘lib ulug‘ Sharq olimi, ozarbayjon xalqining namoyandasi ixtiro qilgan, degan xulosaga kelishga imkon beradi. Mazkur notatsiya orqali maqomlarning yagona nusxasi bizgacha yetib kelganligi notatsiyaning ahamiyatini yanada oshiradi va bu musiqa asari qaysi xalqniki bo‘lishidan qat‘iy nazar maqomlar tarixidan ajoyib bir sahifani yoritib beradi. Safiuddin yaratgan nota yozuvi tizimining olamshumul tarixiy ahamiyati ham shunda. Sababi – bu notatsiya maqom yo‘llarining o‘tmishdagi qiyofasini tasavvur etishga nisbatan imkon beradi [3; 133-134-6.].

Bundan asosiy maqsad maqomlarning o‘rganilishni osonlashtirish edi. Asl ismi Pahlavon Niyoz Mirzaboshi Komil bo‘lgan musiqashunos olim, shoir va bastakor yaratgan nota yozuvi usulidan faqatgina maqomlarni ma‘lum darajada biladigan ijrochilar foydalana olganlar xolos. Ushbu nota yozuvi usuli “Xorazm tanbur chizig‘i”

[4; 521-576-b.] deb nom olgan va u musiqachilar orasida juda ham ommabop bo'lib ketmagan edi (1-rasm).



**1-rasm. “Xorazm tanbur chizig‘i” dan namuna.**

Xorazm nota chizig‘i keng tarqalmaganiga sabab, uning o‘ziga xos mutakkabligi, foydalanishdagi noqulayligi edi [5; 10-6.].

Shu sababdan hozirgi nota tizimi qariyb bir asrdan buyon maqomlarni o‘rganishda va originalligini saqlab qolishda yaxshigina vosita bo‘lib kelmoqda.

Maqom asarlarini o‘zlashtirish, uni kompyuter dasturlaridan foydalangan holda adaptatsiyalashning eksklyuziv tomonlarini o‘rgatish va o‘rganish hozirgi kundagi ustoz-shogirdlar oldida turgan vazifalardan sanaladi.


Umuman olganda, kompyuter paydo bo‘lgan davrlardan boshlab musiqiy-texnologik hayotda ham ko‘plab imkoniyatlar yuzaga keldi. Bunday imkoniyatlardan biri musiqiy kompyuter dasturlarining paydo bo‘lishi va takomillashuvidir. Kompterdan notalarni yozish va ovoyni yozish ishlarini olib borish zamon talablaridan biridir. Bunday musiqiy dasturlardan foydalanuvchilar barmoq bilan sanalarlidir. Dasturlarda ishlash uchun mutaxassis ikkita fanni chuqur egallagan bo‘lishi lozim: axborot texnologiyalari, musiqa asoslari. Musiqa nazariyasi bo‘yicha bilimlarni egallamay turib, notalar cho‘zimini, balandligini, ladlarni, intervallarni va shunga o‘xshash ko‘plab musiqaning ifoda vositalarini to‘g‘ri tahlil qila olmaydigan shaxs uni kompyuter tiliga ag‘dara olmaydi. Bu esa o‘quv jarayonida ushbu dasturlardan foydalanishda katta qiyinchiliklarga olib keladi. [6.].

Oliy ta’limda tahsil olayotgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari maqomlar musiqasini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishi, qolaversa maqoilarni o‘rganishni osonlashtirish, qiziqishlarini rivojlantirish va shu asosida ulardagi musiqiy tafakkurni yuksaltirish maqsadida nota matn muharriri (FINALE, SIBELIUS) hamda musiqa yozish dasturlari (NUENDO, CUBASE, AIMP3, MELODYN,...) dan foydalanishning eksklyuziv metodikasini yoritishni maqsad qildik. Eksklyuziv uslub deb atashimizning sababi bunday metodika ilk bor taklif qilinmoqda.

Biz tadqiqotimiz uchun tanlagan, hozirgi kunda keng foydalanilayotgan MELODYN kabi musiqiy kompyuter dasturlari imkoniyatlarini, ushbu dasturlarda ishlash mahoratini oshirishni ko‘zda tutib, shular asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy tafakkurini yuksaltirish masalasini ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi.

Jumladan, “MELODYN” nota matn muharriri dasturi vositasida:

- dastur jadvaliga ovozni yozish;
- uni tahrir qilish;
- tinglash jarayonida qaysi nota ijro etilayotganligini real tarzda eshitib, kuzatib borish;
- ma'lum nota matnini nusxalash;
- tinglangan musiqa asarining notasini avtomatik tarzda ekranda namoyish etish va zarur bo'lganda kerakli formatda saqlash kabi ko'pgina operatsiyalarni bajarish mumkin.



### **2-rasm. Dasturning ishga tushish holati.**


Dastur to'liq ishga tushgach, “File” menyusidan “Open” paneli chiqariladi hamda biz uchun ishlash zarur bo'lgan trek topib, “Otkrit” tugmasi yordamida proyektga trek yuklab olinadi (2-rasm).

Trek ochilayotgan paytda kutib turish paneli ishga tushadi va proyektga trek yuklanadi.

Ovozlarni montaj qilish mumkin bo'lgan proyektning umumiy qo'rinishi.

Dastur xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, u ovoznining musiqiy balandligi kamchiliklarini tuzatish, ashula so'zlaridagi bo'g'inlarning qisqa-uzunligidagi nisbat xatolarini, nola va bezaklar kamchiliklarini tuzatish, shuningdek dinamik xususiyatlarni sozlash kabi qo'plab funksiyalarni amalga oshirish imkoni mavjud.

Bundan tashqari, ustozlar tomonidan ijro qilingan ashulaning nota matnini ham chiqarib olish mumkin. Bu esa kelajakda tadqiqotchilar tomonidan maqomlar ijrosining, qolaversa o'zbek xalq milliy mumtoz kuy va ashulalarning nihoyatda aniq bo'lgan nota matnlarini yozish ishlarida qo'l keladi deb hisoblaymiz (3-rasm).



**3-rasm. Kuyni nota matnga o'g'irish jarayoni**

Shuningdek, dastur tizimida musiqa ijrosiga tuzatish va qo'shimcha jilolar kiritishning turli xildagi operatsion ish uslublarini amalga oshirish imkoni mavjud bo'lib, buning uchun dasturning tepa qismidagi menyu ustiga sichqonchani qo'yib, kerakli bo'lim tanlanadi va sichqonchani chap tomon tugmasini bosish orqali kiriladi.

Kamchiliklardan xoli bo'lgan trekni saqlash talab qilinganda, "File" menyusidagi "Save Arrangement" yoki "Ctrl+S" bo'limi tanlanadi va turli formatlarda saqlash lozim bo'lgan tayyor holatdagi audiotrek kompyuterning kerakli joyiga saqlab olinadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, maqom asarlarini o'rganish ularni nihoyatda ko'p eshitishni talab qiladi, shuningdek ansambl ijrolarini ovoz bilan uyg'unlashtirish kabi ishlarda ko'proq foydalanish tavsiya qilinadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, maqom ta'limotida zamonaviy texnologiya va metodlarning qo'llanilishi davr talabidir maqolada ko'rsatilgan ilmiy mulohazalardan kelib chiqib, yuqoridagi ijodiy muhitni yaratgandan so'ng, bo'lajak musiqa o'qituvchilarida maqomlar borasida fikr yuritish, maqomlarni tinglash, maqom shu'balaridan ijro etish samaradorligi oshadi, ularda intellektual va musiqiy tafakkur, samarali idrok etish faoliyati kuchayadi, badiiy jarayonni his etishi tiniqlashadi. Umuman, zamonaviy musiqa ta'limini rivojlantirishning asosiy shartlari va mezonlaridan biri sifatida samarali o'qitish metodlari hamda texnologiyalarini qo'llagan holda, ularni milliy maqom asarlari ta'limi jarayonida adaptatsiyalash va shu orqali ma'lum ijodiy natijalarga erishish imkoniyati mavjud.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // Xalq so'zi. – T., 2017. – 18 noyabr – B. 1-2.
2. Соломонова Т.Е. Ўзбек музыкаси тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – Б. 35-36.
3. Ражабов И.Р. Мақомлар. – Тошкент: Санъат, 2006. – Б. 137.
4. Юсупов М., Акбаров И.А. Хоразм мақомлари. – Тошкент, 1958.
5. Ражабий Ю. Музыка меросимизга бир назар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1978. – Б. 8.
6. Юлдошев У.Ю. Миллий мақом асарлари асосида бўлажак музыка ўқитувчисининг ижодий тафаккурини ривожлантириш: PhD. ... дис. – Тошкент, 2021. – 148 б.
7. [library.ziyonet.uz//tasavvuf](http://library.ziyonet.uz//tasavvuf)